

Ozoda Shobilolova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ozodasobilova@gmail.com*

“YORQINOY” SPEKTAKLI: DRAMATURGIYA VA REJISSURADAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada, O'zbek Milliy akademik drama teatrida 1994-yil sahnalashtirilgan “Yorqinoy” spektakli tahlil etiladi. Dramaturgiya va rejissuradagi o'ziga xosliklarga ilmiy tashxis qo'yiladi.*

***Kalit so'zlar:** teatr, dramaturg, rejissyor, aktyor, spektakl, sahna, obraz, voqea, ssenografiya.*

THE PLAY "YORQINOY": CHARACTERISTICS IN DRAMATURGY AND DIRECTION

***Abstract.** This article analyzes the play "Yorqinoy", staged at the Uzbek National Academic Drama Theater in 1994. A scientific diagnosis is made of the peculiarities of dramaturgy and direction.*

***Keywords:** theatre, playwright, director, actor, play, stage, image, event, scenography.*

XX asrning boshlarida teatr “Turon” sahnasida M.Uyg‘ur rejissyorligida sahnaga chiqqan Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasiga asr so‘ngida yana qayta murojaat etildi. Bu dramaga M.Uyg‘ur 1920 va 1927-yillari ijodiy kuch-quvvat sarf etgan bo‘lsa, rejissyor N.Otaboyev 1994-yil zamonaviy tendensiyalar asosida pyesani qayta sahnalashtirdi. Uchinchi talqinda, albatta, asar sahnaviy tahrir etildi, zamon va makon kesimida ijodiy yondashildi. Dastlabki talqinlar bo‘yicha M.Rahmonov: “Asarning ilgari ishqiyy-romantik talqini xalqning istibdodga qarshi kurash g‘oyasi bilan boyitiladi. Yorqinoyning Po‘latga bo‘lgan muhabbati asar syujeti va komplekti rivoji uchun bir vosita bo‘lib xizmat qiladi” [1, 70-b], deb yozadi.

N.Otaboyev Yorqinoyni avvalgi Yorqinoylardan farqli o'laroq shoirona qiz uslubida emas, aksincha mard, jasur, birso'zli, chapdast qiz misolida tasvirlaydi. M.Uyg'ur ijod mahsullarida muallif tasvirlagandek, XVII asrda Farg'onada el og'zida dostonga aylangan Po'lat botir qo'zg'olonini mavzu qilib olgan bo'lsa, N.Otaboyev spektaklda pok muhabbati yo'lida kurashdan qaytmaydigan dovyurak qiz Yorqinoyni birinchi planga olib chiqqan. Yorqinoy Z.Ashurova haqiqatparvarlikda, hatto otasining ko'ziga tik qaraydigan qiz. Zamon zayliga yo'yilsa, muallif qalamga olgan davrda ota va qiz munosabatlari andishaning tub-tubidan o'rin olgan. Shunga ko'ra avvalgi talqinlarda

Yorqinoy – Z.Hidoyatova qalban erksevar, muhabbat og'ushidagi sarkash qiz. Z.Ashurovaning Yorqinoyni esa zamon talablariga muvofiq ishqli yuragi o'tida boshi baland, qaddi tik, so'zi o'tkir, harakatlari chaqqon, dangal qiz.

O'lmas botir (G'.Hojiyev) yakka-yu yolg'iz farzandi Yorqinoyni o'g'il bola fe'l-atvorida tarbiyalagan. Qo'liga ip-igna berib emas, qilich berib jangovor ruhiyatda qilichbozlikka o'rgatgan. Aslida ham Cho'lponning Yorqinoyni Layli, Shirin kabi hissiyotlar girdobidagi ayol emas, balki To'marisdek kurashchan, jasoratli, zukko ayol. Ota-bola o'rtasida konflikt yuzaga kelishiga sir oshkor bo'lishi sababdir. Yillar davomida yashiringan bu maxfiy ma'lumot O'lmas botirni ham, Po'lat (M.Abduqunduzov)ni ham, Yorqinoyni ham boshqa-boshqa taraflarga ajratib yuboradi. Chuqur ildiz otgan masala shundaki, Po'latning otasi O'lmas botirning ukasiga qizini bermagani uchun butun bir boshli odamlar qirg'inbarot qilingan. O'lmas botir mana shu vaj-korson sababli Po'latning otasi, akasi, amakisi, tog'asi yana boshqa qancha qavm-u qarindoshlarini o'ldirib, bog'dagi yong'oq tagiga ko'mgan. Topilgan jabrdiydalarning suyaklari endi Po'latni xo'jayiniga itoatkor bog'bon Po'lat emas, tamomila boshqa Po'lat – qasoskor Po'latga aylantiradi. Dramada sirning oshkor bo'lishi voqealar rivojini izchillashtiradi, qahramonlar o'rtasida ichki va tashqi konfliktni keskinlashtiradi. Konflikt Po'lat atrofiga xon va beklar zulmidan ozor chekkan odamlarni to'plab, xon va zolimlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishdan boshlanadi. Xon qo'zg'olonni bostirishni O'lmas botirga

buyuradi. Dramatik zanjir qo'zg'olonchilar bilan O'lmas botir boshchiligidagi xon lashkarlari o'rtasida kechadigan kurashda davom etadi.

Voqealar dramaturgik chuqur va murakkab tuzilgan. Jang-u jadal fursatidan foydalanib, Nishonsoybegi (P.Saidqosimov) xizmatkori Kal (H.Komilov) orqali hiyla-nayrang ishlatib Yorqinoyni o'g'irlab kelishi, bu ishda jisman harakatda bo'lmasa-da, ruhan tubanlikka borishi, masalaning tagiga etgan Yorqinoy ayollik ayyorligini ishga solib, Kalning yordami bilan Nishonsoybegi o'rdasidan qochishi, urush bo'layotgan erga erkak kiyimida etib borib, Po'lat o'rnida qo'zg'olonchilarga boshchilik qilishi, o'z otasiga qarshi urushni davom ettirib, qilichbozlikda padari buzrukvorini engishi – ham dramaturgik, ham sahnaviy talqin taraflama zalvorli vaziyat, tafakkur, ijodiy kuch-quvvat talab etadigan hodisalar. Spektakl M.Uyg'ur talqinida jang-u jadal talato'plari va qo'zg'olonchilar g'alabasi bilan yakunlanadi. N.Otaboyev rejissurasida sahna jang maydoniga aylanmagan. Sahnada jangovarlik ruhiyat hukm suradi, biroq voqealar zamirida qilichbozliksiz g'oya ochiladi, mazmun-mohiyat anglashiladi. Bu ham bo'lsa rejissyor dramaturgiyani yangi nigohda ko'rishi, asarni yangi sahnaviy detallar bilan boyitishi, jangovar pyesani yangicha bir tamoyilda talqin etishi, deya tahliliy chizgi beriladi.

“...pyesaning bosh qahramoni Po'lat botir obrazi talqini kuchaytirilib, haqiqiy xalq sarkardasi va qahramoniga aylantirildi. Kal obrazining xalqchilligi, satirik tomoni kuchaytiriladi. Spektaklda fosh qilinishi kerak bo'lgan O'lmas botir va Nishonsoybegi obrazlarining johilliklari chuqurlashtirilgan” [4], – deya tahlil qiladi M.Rahmonov.

M.Uyg'ur drama talqinida Po'lat botir, O'lmas botir, Nishonsoybegi obrazlariga katta ahamiyat qaratgan. Shu bois uning spektakllarida sahna jangi, changi, shovqin-suroni etakchilik qilgan. N.Otaboyevning “Yorqinoy”ida ayol qalbi madh etiladi, shuningdek, makri, kuch-qudrati ochib beriladi. Rejissyor badiiy ifoda vositalari uyg'unlashuvida sahnada yaxlitlik, umumlashmalikni yuzaga keltirgan. O'lmas botirning bog'-rog'ini tasvirlashda rassom B.To'rayev daraxtzorlik, gulzorlikka urg'u bersa, Nishonsoybegi xonadoni tasvirida boylarcha hashamat, viqorga e'tibor qaratadi. Uning ssenografiyasi voqea mohiyatiga binoan lokal

xususiyat kasb etgan. Rejissyor va rassom ijodi bir-birini to'ldirgani bois voqealarda aniqlik, teranlik hosil bo'lgan. M.Bafojev bastalagan musiqa voqeyiy hodisalar ta'sir kuchini oshirish barobari obrazlar dunyosi yorqinlashuvida katta hissa qo'shgan. "Yorqinoy" mazmunan va shaklan zamon mezonlariga muvofiq spektakl.

"...zulmatli o'tmishda adolatning tantana qilishi, boy qizining kambag'al yigitga turmushga chiqishi, ayniqsa oddiy bir fuqaroning hokimiyatni egallashi folklor asarlari zaminidagina yuz berishi mumkin. Spektaklda esa xalq ijodiga xoslik mavjud" [2], – deydi professor H.Abdusamadov.

"Yorqinoy" dramada ikki muhim xislat ustuvor. Birinchisi, afsonaviy tomoshabinlik, ikkinchisi esa hozirgi zamon uchun saboq bo'ladigan jihatlardir. Agar mag'zida, voqeyiy jarayonlar ma'no-mohiyatida, obrazlar tabiatida xalq ijodining ruhi sezilib turadi. Yolg'onga, qabihlikka, jinoyatga, zo'ravonlikka o't ochishdek, alalxusus, chin sevgini ulug'lash, inson sha'nini asrab-avaylash, haq-huquqlarni himoya qilish, adolatli davlat barpo etishdek sa'y-harakatlar zahirida zamonaviy tamoyillar mujassam. Bu jihatdan spektaklda O'lmas botir, Kal va Bek obrazlari xarakterli xususiyatga ega. Ularning mudhish qilmishlari, chirkin kirdikorlari tomoshabinni hushyorlikka da'vat etadi.

G'.Hojiyev O'lmas botir obrazida johil, o'z manfaati uchun har qanday jinoyatdan hayiqmaydigan xon amaldorlarining basharasini ochib beradi. P.Saidqosimov gavdalantirgan Nishonsoybegi obrazi esa nihoyatda xunuk, beso'naqay maishatparast va xudbin. Bu ham O'lmas botir kabi huzur-halovati yo'lida hech qanday yovuzlikdan qaytmaydigan beklarga xos xarakterni ifodalagan. Voqealar zanjirida cho'ri qiz (M.Muxtorova) va Kal obrazlariga muhim dramaturgik vazifa yuklangan. Personajlarda xalqchilik, jaydarilik xislatlar etakchi.

Cho'ri qiz chaqqonligi, so'zamolligi, kuyinchakligi bilan ajralib turadi. U Po'latni shu darajada yaxshi ko'radiki, rashk o'tida o'z sevgilisiga xiyonat qilib qo'rganini ham sezmay qoladi. Kal dramaturg va rejissyor qarashlarida satirik obraz. Ijroda H.Nurmatov qahramonidagi salbiy chizgilarni yumor bilan ifodalaydi. So'zlashish ohanglarini saj' uslubiga solib, tomoshaxonani kulgiga to'ldiradi.

Aktyor obrazning ichki transformatsiyasini izchil ochib berishga muvaffaq bo'lgan [3].

Uning qahramoni xon va beklar saroyida xizmat qilsa ham, xalq fikri-zikri, umidlari bilan yashaydi, o'zining o'tkir va qiziq qochirimlari bilan xon va beklar ustidan kuladi, mazax qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Abdusamatov H. Yong'oq ostidagi xandaq. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1994-yil, 18-mart № 6-7 (3257).*
2. *Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. Ikkinchi kitob, 1960–2000-yillar. – Toshkent: Madaniyat ishlari vazirligi Istiqbolni belgilash, uslubiyat va axborot Respublika Markazi, 2003.*
3. *Istiqlol va Milliy teatr. To'plam. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.*
4. *Rahmonov M. Hamza o'zbek davlat akademik drama teatri tarixi. Birinchi kitob, 1914–1960-yillar.*

